ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

Journal of national CULTURE

Received: 11.08.2025 · Accepted: 28.09.2025 · Published: 28.10.2025
DOI: https://doi.org/10.64681/z9mtq311

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

Institute of Uzbek National Musical Art named after Yunus Rajabi
JOURNAL OF NATIONAL CULTURE, 1(5), 2025
www.jnculture.uz

Maqom ijrochilik san'ati uslublarida ustoz-shogird an'analari

(The Ustoz–Shogird Traditions in the Stylistic Practices of Maqam Performance)

Nargiza Begmatova

The Department of Composition, Bastakor and General Piano,
The Institute of Uzbek national musical art named after Yunus Rajabiy,
100001, Mustaqillik, 1.
Uzbekistan/Tashkent
E-mail: kbufkafedrasi@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada "ustoz-shogird" an'analari O'zbekiston musiqiy madaniyatining shakllanishi va rivojlanishidagi o'rni chuqur tahlil qilinadi. Ushbu tizim Sharq sivilizatsiyasining eng qadimiy va samarali ta'lim-tarbiya usullaridan biri sifatida musiqiy ijodkorlikning asrlar davomida uzluksiz saqlanishini ta'minlab kelgan. Ustoz-shogird tizimi nafaqat ijrochilik sir-asrorlarini o'rgatish, balki ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni, milliy ruhni, estetik didni va kasbiy mas'uliyatni yosh avlodga singdirishning noyob shaklidir. Maqolada iste'dod, bilim, badihago'ylik, so'z talaffuzi, jo'r bo'lish, sahnaviy madaniyat kabi jihatlar ijrochilikning asosiy tarkibiy qismlari sifatida tahlil qilinadi. Halima Nosirova, Turg'un Alimatov, Komiljon Otaniyozov singari mashhur san'atkorlar ijodi misolida ustoz-shogird tizimining amaliy samarasi va davomiyligi yoritilgan. Shuningdek, maqom ijrochiligining uslubiy boyligi va ijodiy individualligi ustozlar maktabi orqali qanday rivojlanib borayotgani ko'rsatib beriladi. Raqamli texnologiyalar davrida ham ushbu tizim o'z ahamiyatini yo'qotmay, balki yangi shakllarda – musiqa akademiyalari, ustaxonalar va onlayn ta'lim platformalari orqali yanada boyib bormoqda. Natijada, "ustoz-shogird" an'anasi O'zbekistonning milliy o'zligini, ijodiy uzluksizligini va madaniy merosining barqarorligini ta'minlovchi asosiy ustunlardan biri bo'lib qolmoqda.

Kalit so'zlar: ustoz-shogird an'anasi, maqom ijrochiligi, ijrochilik mahorati, musiqiy ta'lim, madaniy meros, an'ana va zamonaviylik, raqamli davr.

Abstract

The article provides an in-depth exploration of the *Ustoz–Shogird* (Master–Apprentice) tradition as a cornerstone of Uzbekistan's musical culture, particularly within the context of Maqam performance. This ancient pedagogical model, deeply rooted in Eastern civilization, represents not only the transmission of musical skills but also the moral, aesthetic, and spiritual education of successive generations. The study emphasizes that the *Ustoz–Shogird* relationship goes beyond the conventional teacher–student dynamic, encompassing the formation of artistic individuality, ethical awareness, and creative thinking. Key components of musical performance

— talent, knowledge, improvisation, diction, ensemble collaboration, and stage artistry — are analyzed as integral parts of this system. Through the artistic legacies of Halima Nosirova, Turgun Alimatov, and Komiljon Otaniyozov, the author demonstrates how the *Ustoz–Shogird* tradition has preserved the essence of national music while fostering its evolution. The article also discusses the adaptation of this model to the modern educational environment, where traditional mentorship harmoniously coexists with academic instruction and digital learning technologies. In the age of globalization and cultural transformation, the *Ustoz–Shogird* system remains a vital instrument for sustaining Uzbekistan's national identity, artistic continuity, and the creative development of new generations of musicians, ensuring that the timeless dialogue between tradition and innovation endures.

Keywords: Ustoz–Shogird tradition, Maqam performance, musical education, performing mastery, cultural heritage, improvisation, digital transformation.

Аннотация

В статье всесторонне рассматривается роль и значение традиций «устоз-шогирд» в формировании и развитии музыкального искусства Узбекистана, особенно в контексте исполнительских стилей макомного жанра. Данная система представлена как древнейшая форма восточной педагогики, в основе которой лежит преемственность поколений, единство духовно-нравственного воспитания и профессионального мастерства. Автор отмечает, что традиция «устоз-шогирд» охватывает не только процесс обучения игре или пению, но и развитие личности ученика, формирование у него художественного вкуса, чувства ответственности, уважения к культуре и труду. Подробно анализируются такие компоненты, как талант, знания, импровизация, дикция, ансамблевое взаимодействие и сценическая культура. Приводятся примеры выдающихся исполнителей — Халимы Носировой, Тургуна Алиматова, Комилжона Отаниёзова, чья творческая деятельность демонстрирует глубину и эффективность данной системы. Особое внимание уделяется тому, как устоз-шогирд анъанаси сохраняет актуальность в XXI веке: современные музыкальные академии и цифровые платформы интегрируют элементы традиционного наставничества с инновационными методами обучения. Автор делает вывод, что именно через эту систему обеспечивается непрерывность национальной музыкальной школы, передача духовных ценностей и воспитание новых поколений исполнителей, способных соединить традицию и современность в едином культурном пространстве Узбекистана.

Ключевые слова: устоз-шогирд, музыкальное образование, исполнительское искусство, маком, традиции Востока, духовное воспитание, культурное наследие.

O‘zbek xalqining musiqiy, madaniy va ma’naviy merosida “ustoz-shogird” an’analari alohida o‘rin egallaydi. Bu tizim Sharq sivilizatsiyasiga xos bo‘lgan eng qadimiy va eng samarali tarbiyaviy shakllardan biri bo‘lib, u nafaqat kasbiy mahoratni, balki ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni ham avloddan-avlodga yetkazishga xizmat qiladi. Ustoz va shogird o‘rtasidagi munosabat oddiy o‘qituvchi va talaba aloqasidan ancha chuqurroq bo‘lib, unda insonning ichki dunyosi, ijodiy tafakkuri va axloqiy tarbiyasi ham tarbiyalanadi.

Ma’lumki, “Ustoz-shogird” an’analari – ta’lim – tarbiya, kasbiy mahoratni tarbiyalash, har tomonlama etuk shaxsni shakllantirishga asoslangan jarayon. Yosh avlodni o‘qitish va o‘rgatishning o‘zbek milliy ma’naviy dunyosi amaliyotida yuzaga kelgan shaklidir. Bu jarayon har bir kasbning o‘z qonun qoidalari, mohiyati, yo‘nalishi, amaliyoti negizida davrlar osha shakllanib rivojlanadi. Musiqa san’ati o‘zining xarakterli bo‘lgan jihatlarini o‘zida mujassam etgan kasbiy asoslari mavjud. Ana shu kasbiy asoslarning biri ijrochilikdir. Ijrochilikning barcha xususiyatlari maqom san’ati ijrochilik mezonlarida o‘zining mukammal ifodasini topgandir. Ustoz-shogird an’analari esa ijrochilik mezonlari asosiga quriladi. Shu bois ustoz-shogird an’analarining mukammalligi maqom san’atining bardavomligini ta’minlab kelgan.

Ijrochilik – deb ta’riflaydi musiqashunos S.Begmatov o‘z tadqiqotlarida - “bevosita asar talqini bilan bog‘liq qator tabiiy, ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarni o‘zida mujassam etadi. Iste’dod, bilim, ovoz, sozandalik, hofizlik, jo‘r bo‘lish mahorati, badihago‘ylik mahorati, saboq, ijodiy yondoshish, so‘z talaffuzi kabi jihatlar shular jumlasidandir”[1]. Agar bu jihatlarning alohida-alohida tahlil qilinsa, ularning har biri alohida tarmoq va ularning o‘z qoidalari, o‘zlashtirish jarayonlari va kasbiylik mahoratlarining mukammallik darajalariga egaligiga guvoh bo‘lamiz. Chunki, ustozlar qatoridan o‘rin olgan har bir ustozning ijodiy faoliyatida yoki ijro talqinlarida bu jihatlar benuqson va mukammal o‘z ifodasini topgandir. Bu qoida, ushbu bilim va mahorat mezonlari bilan bog‘liq jihatlar har bir ustozning ijrosida mujassamdir. Faqat talqin jarayonida indviduallik xususiyatlarni sezish mumkin bo‘ladi.

Bularni orasida: - iste’dod va ovoz bevosita insonga berilgan qobiliyatlar bo‘lsa; - bilimli bo‘lish, sozandalik va xonandalik kasbiylikka xos; - jo‘r bo‘lish mahorati, saboq, so‘z talaffuzi malaka olish darajasining natijalarida o‘zini namoyon etadi; - ijodiy yondoshish va badihago‘ylik mahorati esa mohirlik mahoratining manbai hisoblanadi. Bularning barchasi bir so‘z bilan aytganda Ijrochilik saboqlari va ijro mahoratining shakllanib rivojlanish

“Chaman ichra”

[1] Бегматов С. Ижорочилик синоатлари. // Ҳожи Абдулазиз ва Марказий Осиё халқларининг шеърий, мусиқий бадиий анъаналари. Материалы Междуна-родной конференции, г. Душанбе, 2021 г. 33 с.

mezonlarining mahsuli sifatida bosqichma bosqich ijrochilar tomonidan o‘zlashtiriladi. Shu bilan birga amaliyotga ko‘ra ustoz-shogird qabilida amalga oshiriladigan kasbiy an’analarining asosiy ko‘rinishlarini tashkil etadi.

Ustozona ijroga erishishning birinchi ko‘rinishlari iste’dod va ovozdir. Iste’dod kasbga etaklaydi va mohir bo‘lishga asos bo‘ladi. Qolgani saboq, ta’lim, tajriba va natijaning samarasiga bog‘liqdir. Amaliy jarayonda o‘z iste’dodi bilan mashhur bo‘lish, deyarli barcha taniqli san’at namoyandalariga nasib etgan. Chunki ularning iste’dodi barcha qobiliyat sifatlarini uyg‘unlashtirgan ovoz orqali betakror ijro talqinlarning egalari bo‘lganlar. Eng yorqin namunalari sifatida Halima Nosirova (Chaman ichra), Kommuna Ismoilova (Ovozing sani), Orif Alimaxsumov (Na bo‘lg‘ay), Tavakkal Qodirov (Toshkent Irog‘i)larni misol qilish mumkin.

Ikkinchidan, kasbni ustasi, sardori bo‘lishda bilim eng muhim jarayon hisoblanadi. Bilimli ijrochini avvalo ustoziga ahamiyat beradilar. So‘ng uning ijrosini namuna qiladilar. Har qanday bilimli sozanda yoki xonanda davrining ibratli san’atkori sifatida e’zozlanishi muqarrardir. Bunday sozandalar o‘zbek mumtoz musiqa ijrochiligi amaliyotida juda ko‘p. Lekin, Turg‘un Alimatov (Tanbur nolasi), G‘ulomjon Hojiqulov (Nasrulloyi), Mahmudjon Muhamedov (nay yallasi)lar o‘z kasbini ustasi sifatida, xalq orasida afsonaga aylanib bo‘lganlar. Chunki, ustozlar kaysi kasbda bo‘lmasinlar o‘zlari har tomonlama mukammal darajadagi kasbining ustasi bo‘lishlari shart. “Musiqada ustoz – kuy chalib, o‘zidan bir narsalar qo‘shib, mahoratini nafis san’at maqomiga ko‘targan sozanda”[2] va xonandalarga nisbatan qo‘llanilib kelingan.

Uchinchidan, jo‘r bo‘lish mahorati, saboq, so‘z talaffuzi malaka olish darajasining natijalarida o‘zini namoyon etadi. Jo‘r bo‘lish mahorati – kasbiy talablardan biri bo‘lib, ustozona munosabatlarga tayangan holda tuzilgan. Ijroda mohirlik, eslab qolish qobiliyati(xotira), texnik mahorat va ifodali talqin etish eng zarur jihatlardan hisoblanadi. Jo‘rnavoz va jo‘rovoz bilan bir butundek ijro

Halima Nosirova



“Ovozing sani”
Kommuna Ismoilova



“Na bo‘lg‘ay”
Orif Alimaxsumov



“Toshkent Irog‘i”
Tavakkal Qodirov



Tanbur nolasi
Turg‘un Alimatov



Narulloyi
G‘ulomjon Hojiqulov

[2] Матякубов О. Мақомот. Т., 2004й. 287-б.

etish asosiy mezondir. Jumladan: Jo‘raxon Sultonov va Ma’murjon Uzoqov hamnafasligida “Naylayin” ashulasi.

Saboq – “an’anaga ko‘ra ustoz-shogird qabilida amalga oshirilib kelingan. Odatda, har bir shogird ko‘p yillar davomida (ijrochilik sirlarini puxta o‘zlashtirgunga qadar) tanlagan o‘z ustozi nazoratida va tarbiyasida bo‘lgan”[3].

So‘z talaffuzi – xonandalikda asarning so‘zini to‘g‘ri talaffuz qilish, she’r va g‘azallar ma’nosini anglab talqin etishi juda muhimdir. Bu bilan ijrochi kuylash jarayonida ashulaning mazmuniga e’tibor berib, har bir so‘zni tinglovchilarga to‘g‘ri va aniq etkazishini ta’minlaydi. Bunda so‘z (aruz) vaznining kuy usuli bilan uzviy bog‘liqligi va hamohangligi muhim omillardan biri hisoblanadi. Kamoliddin Raximov ijrosidagi “Ushshoq” ashulasini misol sifatida tinglash mumkin.

To‘rtinchidan: ijodiy yondoshish va badihago‘ylik mahorati esa mohirlik mahoratining manbai hisoblanadi. Maqomlar ijrochiligida bu jarayonlar ijrochidan bilimli yondoshish, mohirona talqin etishni talab etadi. Buning zaminida esa maqomlarda keng qo‘llaniladigan namud va ranglardan keng foydalanish mahoratlariga tayanadi. Misol: Rasul qori Mamadaliev ijrosida “Qoshi yosinmu deyin”, Komiljon Otaniyozov ijrosida “Xorazm Segohi” asarlari.

“Ustoz-shogird” an’analari O‘zbekistonning madaniy hayotida faqat musiqiy merosni saqlash vositasi bo‘lib qolmay, balki yangi g‘oyalar va ijodiy yondashuvlarni ham shakllantiruvchi asosiy poydevor sifatida xizmat qilmoqda. Bu tizimning asrlar davomida barqaror rivojlanib kelayotgani uning naqadar hayotiy va zarurligini isbotlaydi.

Jo‘raxon Sultonov va Ma’murjon Uzoqov “Naylayin”

Kamoliddin Raximov “Ushshoq”

Rasul qori Mamadaliev “Qoshi yosinmu deyin”

Komiljon Otaniyozov “Xorazm Segohi”

Ustoz-shogird an’analari qadimdan O‘rta Osiyo xalqlarining hayoti, san’ati va ilm-fani rivojida asosiy rol o‘ynab kelgan. Sharqdagi ko‘plab sohalarda, jumladan musiqa, naqqoshlik, me’morchilik, hunarmandchilik, adabiyot va hatto harbiy san’atda ham bu tizim asosiy tarbiyaviy yo‘l bo‘lib xizmat qilgan. Musiqa san’atida ustoz shogirdga nafaqat cholg‘u chalishni yoki kuylashni o‘rgatgan, balki uni san’atning falsafasi, ruhiy olami va badiiy mazmuni bilan ham tanishtirgan.

Masalan, maqom san’ati asrlar davomida aynan ustoz-shogird tizimi orqali saqlanib va rivojlanib kelgan. Har bir maqom ijrochisi yoki bastakori o‘z navbatida ustozdan olgan bilim va ko‘nikmalarni shogirdlariga yetkazgan. Bu jarayon tufayli

[3]Бегматов С. Ҳофизлик санъати. Т., 2007й. 16-б.

maqomlar o‘zining boy merosini yo‘qotmasdan, balki har bir avlodda boyib va takomillashib borgan.

Ustoz va shogird o‘rtasidagi aloqalar faqat bilim berish bilan cheklanmaydi. Bu jarayon ikki tomonlama tarbiya bo‘lib, unda:

- Ustoz – bilim, tajriba va hayotiy yo‘l-yo‘riq manbai;
- Shogird – qobiliyatli, lekin tajribasiz yosh avlod vakili sifatida ko‘riladi.

Ustozning vazifasi faqat texnik mahoratni o‘rgatish emas, balki shogirdning ijodiy tafakkurini shakllantirish, uning dunyoqarashini kengaytirish, milliy g‘urur va madaniy identitetni mustahkamlashdan iborat. Shu bois ustoz shogirdni nafaqat musiqaga, balki hayotga ham tayyorlaydi, unga sabr, intizom va mehnatsevarlik fazilatlarini singdiradi.

Shogird esa o‘z navbatida ustozni hurmat qilish, uning ko‘rsatmalariga amal qilish va olgan bilimlarni yanada chuqurlashtirishga intilishi shart. Bu o‘zaro hurmat va ishonch tizimning asosiy poydevorini tashkil etadi.

Musiqa sohasida ustoz-shogird tizimi o‘ta muhim ahamiyatga ega. Chunki musiqani kitob orqali o‘rganish yetarli emas — u amaliy tajriba va bevosita ustozning ko‘rsatmalari orqali egallanadi. Masalan, maqom ijrochiligi yoki fortepiano san’atida nafaqat notani to‘g‘ri chalish, balki ohangning ruhini, hissiyotini yetkazish ham ustozdan o‘rgatiladi.

Bugungi kunda globallashuv jarayonlari va texnologik rivojlanish musiqiy ta’limga yangi talablarni qo‘ymoqda. Shunga qaramay, ustoz-shogird an’analari o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Aksincha, u yanada boyib, yangi shakllarda rivojlanmoqda.

Masalan, zamonaviy musiqa akademiyalarida ustoz-shogird tizimi akademik darslar bilan integratsiyalashgan holda faoliyat yuritadi. Bu esa an’anaviy qadriyatlar bilan zamonaviy metodikalarni uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Shu orqali nafaqat texnik bilimlar, balki milliy madaniyat va ruhiyat ham yoshlarga yetkaziladi.

Bugun bu tizim nafaqat an’anaviy maqom yoki milliy cholg‘u asboblarida, balki fortepiano, simfonik ijro, bastakorlik va hatto elektron musiqada ham qo‘llanilmoqda. Bu ustoz-shogirdning universalligi va moslashuvchanligini ko‘rsatadi.

Ustoz-shogird tizimi nafaqat musiqada, balki jamiyatning madaniy-ma’naviy rivojlanishida ham muhim rol o‘ynaydi. Bu tizim orqali:

- Yoshlar milliy merosga hurmat ruhida tarbiyalanadi;
- Madaniyatning uzluksiz rivojlanishi ta’minlanadi;
- Ijodiy avlodlar o‘rtasida bog‘liqlik kuchayadi;
- Milliy o‘ziga xoslik va madaniy o‘ziga xoslik saqlanadi.

Aynan shu sababdan O‘zbekistonda ustoz-shogird an’analari davlat darajasida qo‘llab-quvvatlanmoqda. Turli xalqaro festivallar, ilmiy-amaliy konferensiyalar,

musiqiy tanlovlar orqali bu tizimni yanada rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Kelajak avlodning milliy ruhda tarbiyalanishi, professional musiqachilarning yetishib chiqishi va O‘zbekistonning jahon sahnasida o‘z ovoziga ega bo‘lishi aynan shu qadimiy va zamonaviy tizim uyg‘unligiga bevosita bog‘liqdir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, maqom ijrochilik san’ati uslublarga boyligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga har bir uslubning o‘ziga xoslik va umummilliy jihatlar bilan sug‘orilganligi e’tiborlidir. Ustoz-shogird an’analarining barcha jihatlari asosan mana shu jarayonlarni ijrochilik kesimida o‘zida jamlaydi.

Ustoz-shogird an’analarida avvalo iste’dod va imkoniyat natijasi muhim bo‘lsa, saboq mezoni ma’nan etuklikka olib boruvchi eng muhim jarayon sifatida e’tirof etiladi. Iste’dod, an’ana va zamonaviylik, texnikaviy usullar va chuqur bilimlar bilan uyg‘unlashgan holda shakllansa tinglovchilar e’tiborida kamol topsa maqsadga erishgan bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyot

1. Begmatov S. Ijrochilik san’atlari // Hoji Abdulaziz va Markaziy Osiyo xalqlarining she’riy, musiqa va badiiy an’analari : xalqaro konferensiya materiallari. — Dushanbe, 2021. — 33 b.
2. Matyakubov O. Maqomot. — Toshkent, 2004. — 287 b.
3. Begmatov S. Hofizlik san’ati. — Toshkent, 2007. — 16 b.

References

1. Begmatov, S. Ijrochilik san’atlari [The Performing Arts]. In Hoji Abdulaziz va Markaziy Osiyo xalqlarining she’riy, musiqa va badiiy an’analari [Hoji Abdulaziz and the Poetic, Musical, and Artistic Traditions of the Peoples of Central Asia], conference proceedings. Dushanbe, 2021, p. 33.
2. Matyakubov, O. Maqomot [The Maqoms]. Tashkent, 2004, p. 287.
3. Begmatov, S. Hofizlik san’ati [The Art of Singing]. Tashkent, 2007, p. 16.